

1. KREDIT MAHSULOTI TO'G'RISIDA MA'LUMOT			
Kredit mahsuloti nomi	MAHALLA RIVOJI		
Kredit turi	Ochiq kredit liniyasi orqali/Kredit liniyasi ochmasdan		
Kredit maqsadi	Mahallalarda kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun		
Qarz oluvchilar	Yuridik shaxslar va/yoki yuridik shxas tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar		
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda		
Kredit miqdori	Yangi ochilgan korxonalar va YaTTlar uchun	Faoliyat davri uch oydan oshgan va uzluksiz pul tushumiga ega mijozlarga	
	35 000 000,00 (o'ttiz besh million) so'mgacha	70 000 000,0 (yetmish million) so'mgacha	
Kredit muddati	Asosiy vosita, asbob uskuna, maxsus texnika, qurilish, uzoq muddatli, moddiy, nomoddiy aktivlar va jixozlar sotib olish uchun	36 oygacha	
	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	12 oygacha	
Imtiyozli davr	Asosiy vosita, asbob uskuna, maxsus texnika, qurilish, uzoq muddatli, moddiy va nomoddiy aktivlar sotib olish uchun	6 oygacha	
	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	3 oygacha	
Kreditni ajratish shakli	Mijozning "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida ochilgan asosiy hisob-raqamiga o'tkazish orqali bunda hisob-raqamdan naqd pul yechilganda o'rnatilgan tartibda komissiya undiriladi.		
Kreditni qaytarish tartibi	Annuitet/Differentsial		
Kredit foizlarini to'lash tartibi	Har oyda		
Foiz stavkasi	Kredit muddati 12 oygacha	Kredit muddati 12 oydan 24 oygacha	Kredit muddati 24 oydan 36 oygacha
	Yillik 24 foiz*	Yillik 25 foiz*	Yillik 26 foiz*
2. Kredit ta'minoti			
Kredit ta'minoti	Sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi (mijoz tomonidan boshqa ko'char va ko'chmas mulklar bo'lsa o'rnatilgan tartibda garovga olish mumkin) bunda jamiyat ta'sischilarining kafilligi olinadi;		
3. Hujjatlar			
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Ustav, ta'sis hujjatlari, guvohnoma, ta'sischilar, korxona rahbari (buxgalteri) pasporti, lavozimga tayinlanishi bo'yicha buyruqlar nusxalari; 3. Kredit olish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori; 4. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2 shakl, yillik va operativ balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar); 5. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 6. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xujjatlar; 7. Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar.	
	Yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Faoliyat guvohnomasi; 3. Pasport nusxasi; 4. Boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar; 5. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 6. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xujjatlar; 7. Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar.	
4. Qo'shimcha shartlar			
Mijozga qo'yiladigan asosiy talablar	1. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning moliyaviy faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 2. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmasligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi; 4. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 2 tadan ko'p bo'lmasligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 1 tadan ko'p bo'lmasligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi; 5. Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 2%dan oshgan taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi; 6. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmasligi lozim; 7. Ohirgi 2 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnomaga ko'rib chiqilib, rad etiladi; 8. Avval olingan davlat va ijtimoiy dasturlar bo'yicha olingan kreditlarni to'liq so'ndirilgan bo'lishi kerak; 9. Mijozning asosiy hisob raqami "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida ochilgan bo'lishi lozim.		
Alohida shartlar	*Bunda kreditlar yosh tadbirkorlarga va/yoki ayol tadbirkorlarga ajratilganda kredit foizlari 1-bandga pasaytiriladi (yosh tadbirkor - jamiyat direktori yoki ta'sischisi 30 yoshgacha bo'lsa).		